

**KULOLCHILIK MAKTABLARI TASHKIL ETISHNING ILMIY AMALIY AHAMIYATI***Ubaydullayeva Shahnoza**Andijon davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hunarmandchilikning nafis ko'rinishi bo'lgan hozirgi va qadimgi kulolchilik davrlaridan beri rivojlanib kelayotgan kulolchilik san'ati tarixi, uning vujudga kelishi va o'ziga xos kulolchilik maktablari to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'z:** Hunarmandchilik, sopol, bezak, loy, neolit davri, badiiy bezatish usullari, kulolchilik maktablari, Rishton va G'urumsaroy.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история гончарного искусства, его возникновение, а также уникальные школы гончарного искусства, развивающиеся начиная с нового и древнего гончарного периода, представляющие собой изящную форму мастерства.

**Ключевые слова:** Ремесла, керамика, декорирование, глина, период неолита, способы художественного оформления, гончарные школы, Риштон и Гурумсарай.

**Abstract:** This article discusses the history of pottery art, its emergence, and specific pottery schools, which has been developing since the modern and ancient pottery periods, which is an elegant form of craftsmanship.

**Key words:** Crafts, ceramics, decoration, clay, Neolithic period, methods of artistic decoration, pottery schools, Rishton and Gurumsarai.

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi.

Hunarmandchilikning bir bo'lagi bo'lgan kulolchilik tarixi ana shu hunarmandchilikning paydo bo'lishidan to hozirgi zamon bosqichigacha bo'lgan davr kulolchilik taraqqiyotini o'rganadi, shu davr mobaynida yashab ijod etgan va ijod qilayotgan kulollar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishadi, ularning asarlarini tahlil etadi, taqqoslaydi. Kulolchilik tarixi taraqqiyotida sodir bo'lgan turli badiiy maktab, yo'nalish, oqim va uslublar kurashining mohiyatini yoritadi.

O'zbekiston kulolchiligi – badiiy ish uslublari eng qadimiy turlaridan hisoblanadi. Kulolchilik san'ati asari sirlangan va sirlanmagan ish uslublari asosida yuzaga keladi. Sirlanmagan kulolchilik hajmi jihatidan katta bo'lgan, xo'jalik uchun kerak bo'ladigan buyumlarni o'z ichiga oladi. Masalan, suv va mevalar solish uchun

mo'ljallangan xumlar, ko'zalar, non yopish uchun tandir va boshqalarda buni ko'rish mumkin.

Usta kulollar o'zbek milliy kulolchilik an'alarini asrab avaylab, yangi ijodiy qirralarini va boy ma'naviy merosimizni o'rganib, uni Toshkent shakllanib ulgurgan. Xorazm, Rishton, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, G'ijduvon va Toshkent kulolchilik san'atining mashhur maktablarini misol keltirish mumkin[1].

Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qoraloy, saxovat, halollik, ezgulik timsoli hisoblanadi. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Insoniyat tarixi va rivojlanish jarayonida ilk bora kulolchilik neolit yoki yangi tosh asrida odamlar faqat tabiat in'om etgan mahsulotlarni iste'mol qilish bilan chegaralanmay, balki o'zlari ham uni yaratishga, ko'paytirishga harakat qila boshlagan kezlarda vujudga kelgan. Loydan turli buyumlar yasay boshladilar, ularni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, kontsentrik aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlar asosini tashkil etdi. Qadimgi dunyo davridanoq nafaqat G'arb balki O'rta Osiyo mamlakatlarida ham bu soha ancha taraqqiy etdi. O'rta Osiyo san'ati va madaniyatini o'rganishda bizgacha saqlanib kelgan qal'a, saroy, turar joy va qabrlardan ham kulolchilik namunalari topilgan[2]. Afrosiyob va boshqa yerlardagi topilgan arxeologik qazishmalar IX-XII asrlarda kulolchilik bu yerda rivojlanganidan darak beradi. Undagi hozirgacha saqlangan kulolchilik naqshlari juda qadimiy va noyob hisoblanadi. Yurtimizdan topilgan Qoratog', Panjikent, Samarqand, Kitob, G'ijduvon, Rishtonda hattoki sopol idishlarni sirlab bezatishning o'ziga xos uslublari ham vujudga keldi[3].

XX-asrning 20-yillaridan kulollar mehnatini tashkil etishga e'tibor berildi. Markaziy Osiyo davlatlari jumladan, bizda ham Toshkent va Samarqandda kulolchilik ustaxonalari tashkil etildi. Bu esa doiraviy kulolchilik maktablarining shakllanishiga olib keldi. Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlash usullariga ko'ra: Farg'ona (Rishton, Furumsaroy), Buxoro-Samarqand (Samarqand, Urgut, G'ijduvon, Quva), Xorazm (Madir, Kattabog'), Toshkentda o'zining rivojlanish tamoyillari, yetakchi markaz va ustaxonalari ega ustachilik maktablari mavjud[4]. Ularda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga asosiy umumiylik ham saqlangan. Farg'ona va Buxoro-Samarqand kulolchilik maktablarida I.Komilov, U.Ashurov, U.Qosimov, M.Saidov hamda oilaviy hunarmandlar H.Raximova, K.Boboyeva Xorazm maktabida esa salmoqli ishlari bilan R.Matchonov ancha tanilgan ijodkorlardir. Xorazm maktabi o'zining bezak rangi, ishlanish uslubi bilan bu ikki kulolchilik maktablaridan farqlanib

turadi. Har bir ijod maskanda yaratilgan ishlar o'tgan asr, balkim bugungi kunda ham e'tibordan tushmagan.

Bugungi kunda esa barcha san'at turlari qatori kulolchilik maktablari va badiiy san'at ustalari faoliyati e'tibor ham bir qancha yuksaldi. 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni barcha sohalar qatorida kulolchilik an'analari rivojlanishiga samarali turtki bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзахмедов Д.К. Глазурированная керамика Бухары XIX вв. / Из истории культурного наследия Бухары. - Ташкент, 1990. – С.36
2. N.A.Dmitriyeva, L.I.Akimova. Qadimgi dunyo madaniyati. - M.: Bolalar kutubxonasi, 1998-25 b
3. N.Abdullayev. Madaniyatlar tarixi.-Toshkent: O'qituvchi, 1986.-118 b
4. Q.Usmonov., M.Sodiqov., S.Burxonova. O'zbekiston tarixi.-Toshkent: Sharq, 2005.-49 b
5. Хамидова М.С. XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси хунармандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент,2008. – Б.134